

## YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLAR YETAKCHILARI FAOLLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIY- MA'RIFIY USULLARI

*Rasulov Jamshidbek Maxammadimin o'g'li*

*Andijon viloyati Xo'jaobod tumani 40-sonli ayrim fanlarni chiqurlashtirib  
o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori*

**Qisqacha mazmuni:** Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonlarida mahallaning ijtimoiy institut sifatida rivojlanishida yoshlar yetakchilarining o'rni va ular faoliyatini yanada takomillashtirishning ma'naviy – ma'rifiy usullari haqida so'z boradi.

**Краткое содержание:** В данной статье говорится о роли молодежных лидеров в развитии махалли как социального института в процессе становления Нового Узбекистана и духовно-просветительских методах дальнейшего совершенствования их деятельности.

**Summary:** This article talks about the role of youth leaders in the development of makhalla as a social institution in the process of formation of New Uzbekistan and spiritual and educational methods for further improving their activities.

**Калит сўзлар:** ёшлар, маҳалла, ёшлар етакчиси, фаол фуқаро, ижтимоий педагогика, маданият, маърифат, усул

**Ключевые слова:** молодежь, махалля, молодежный лидер, активный гражданин, социальная педагогика, культура, просвещение, метод.

**Key words:** youth, mahalla, youth leader, active citizen, social pedagogy, culture, education, method.

Vatanimizning bugungi taraqqiyot davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessansni barpo etish tashabbusi yurtimizda yuz berayotgan ma'naviy-ma'rifiy yangilanish jarayonlarining g'oyaviy asosini tashkil etmoqda. Bu tashabbus xalqimizning ko'p asrlik tarixi, xalqimizning boy ma'naviy merosiga bo'lgan munosabatni ham yangi bosqichga olib chiqqanligi tabiiydir. Uchinchi Renassans g'oyasi xalqimizning tarixi, bugungi kuni va kelajagini bog'lovchi ko'prik bo'lib, uni amalga oshirish esa puxta ilmiy yondashuvlar va faol amaliy sa'y-harakatlarni talab etadi.

"Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Bugungi

xalqimiz ham kechagi xalq emas,<sup>1</sup> deya ta'kidlagan edi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev.

Mahalla - xalqimizning azaliy qadriyatlaridan va jamoa bo'lib yashashning eng qulay va yuksak insoniy fazilatlarga asoslangan shaklidir. Bugungi kunda mahalla nafaqat insonlarning bir jamoa bo'lib yashashi, balki davlat va jamiyat boshqaruvining ixcham va samarali instituti sifatida e'tirof etilmoqda.

«Bugun mamlakatimizda mahalla instituti rasman fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari deb ataladi. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning o'ziga xos usuli – mahalla instituti azaldan chinakam milliy qadriyatlar va xayrli ishlar maskani bo'lib kelgan»<sup>2</sup>.

Mahallaning yoshlar tarbiyasidagi, ularni har tomonlama komil shaxs sifatida voyaga yetkazish, qo'llab-quvvatlash va muammolarini hal etishning yangi tizimi sifatidagi o'rni va ahamiyati huquqiy va amaliy jihatdan mustahkamlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori (PQ-92-son, 19.01.2022 y.) ga binoan, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilishi esa mahallani tom ma'noda yoshlar hayotida tayanch ijtimoiy institutga aylanishi jarayonlarida muhim tarixiy qadam bo'ldi.

Mahallada yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari sifatida esa bir qator ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgan va bugungi kunda mahalla yoshlarining haqiqiy huquq-manfaatlarini va ehtiyojlarini ifoda etuvchi ustuvor yo'nalishlar belgilanib, bevosita yoshlarning ma'naviy, madaniy va ma'rifiy hayotiga aloqador quyidagi masalalar qamrab olindi:

mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rmini topishlariga ko'maklashish;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;

<sup>1</sup> Шавкат Мирзиёев: “Ўзбекистонда янги бир уйгониши – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор кўйилмоқда”. Президент Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган танманали маросимдаги нутқида Ўзбекистонда янги бир уйгониши – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилаётгани ҳақида гапиди. [www.kun.uz](http://www.kun.uz) 31.08.2020 (29.11.2021 йил)

<sup>2</sup> Ёт ғояларга қарши курашишда миллий истиқлол ғоясининг аҳамияти /Мутаассибликни келтириб чиқувчи ижтимоий омиллар ҳамда маҳалла, таълим муассасаси ва оила ҳамкорлиги таҳлили масалалари республика илмий-амалий конференция. – Тошкент: 2016. – Б. 141-146.

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan yoshlar bilan tizimli ishslash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko‘maklashish.

Shuningdek, yoshlar yetakchilarini tomonidan madaniyat va san’atni targ‘ib qilish, sog‘lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish, ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida ellikdan ortiq turkum tadbirlarni bevosita mahallaning o‘zida va yoshlarning faol ishtirokida muntazam o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi<sup>3</sup>.

Mahallada yoshlar yetakchilarining yoshlar bilan ishslash borasida amalga oshirayotgan ishlarining bugungi holatida garchi qator ijobiy ishlarni ko‘rish, ularning mahalla va yoshlar hayotida o‘rni va roli toboro oshib borayotganligini ta’kidlagan holda, yanada e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlar mavjudligini aytib o‘tish joizdir.

Ya’ni, har qachon ham yoshlar “yoshlar auditoriyasi bilan ishslashda zamonaviy uslublar, vositalar, usullardan foydalanish va ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega” bo‘lib, yoshlar bilan ishslashni tashkil etishga hissa qo‘sishi mumkin bo‘lgan turli organlar bilan o‘zaro aloqalarni tashkil etish ham muhim omil hisoblanadi<sup>4</sup> hamda bugungi kunda bu masalalar yanada dolzarblashib bormoqda.

Ijtimoiy-pedagogik jihatdan olib qaraganda, bugungi kunda mahallada yoshlar bilan ishslash texnologiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat ekanligi namoyon bo‘lmoqda:

- shaxsni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning davlat-jamoat yaxlit tizimi sifatida yoshlarga ijtimoiy xizmatlar tizimini yaratish;
- yoshlarda g‘ayriijtimoiy xulq-atvor rivojlanishiga to‘sinqinlik qiluvchi asosiy omillarni shakllantirish;
- turli hayotiy vaziyatlarda yoshlarga psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatish;
- yoshlarning mustaqilligini oshirish, ularda qiyin hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutabilish qobiliyatini rivojlantirish va yuzaga kelgan muammolarni samarali hal etish tajribasini ongli egallashiga hissa qo‘sish;
- qiyin hayotiy vaziyatlar, ruhiy tushkunlik, psixologik inqiroz va o‘zini o‘zi qadrlash, jamiyat, mahalla, oila va jamoani hurmat qilish tuyg‘usini rivojlantirish;
- ma’naviy, madaniy, intellektual saviyasini oshirish orqali, erkin fikrlovchi va tashabbuskor shaxsni tarbiyalash shular jumlasidandir.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. “Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ–92. 19.01.2022 y.

<sup>4</sup> Jamoa. Oila pedagogikasi. – Toshkent: «Aloqachi», 2007, - B.384.

Mahallada yoshlar ishslash alohida faoliyat turi bo'lib, uning maqsadi yosh avlodning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish, faol faoliyat ko'rsatish qobiliyatini tiklash yoki yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir<sup>5</sup>.

Umuman olganda, yoshlar yetakchilari faoliyatining mahallalarda to‘g‘ri tashkil etilishi, ularni yoshlar bilan ishslashning zamonaviy metodlari bilan qurollantirish, muntazam malakasini va tajribasini oshirib borish, mahalla yoshlarining faol dunyoqarashi, erkin tafakkuri, jamiyatdagi voqealarga hodisalarga nisbatan to‘g‘ri pozisiyasini shakllantirish, shu bilan birgalikda, yoshlar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiyma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahallada yoshlar yetakchilari faolligini madaniyma’rifiy jihatdan yanada takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflarni berish mumkin:

- yoshlar yetakchilari uchun hududiy oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari ishtirokida uyushmagan yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish maqsadida tashkil etildagan tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha metodik seminarlar tashkil etish va metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar ishlab chiqish;
- mahallalarda yoshlar tafakkurini shakllantiruvchi kitoblar ko‘rgazmalarini tashkil etish;
- yoshlar ishtirokida mahalla istiqboliga bag‘ishlangan eng yaxshi innovasion g‘oyalar tanlovlарини tashkil etish;
- yoshlar yetakchilari tashabbuslari bilan yoshlarni oliy ta’limga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida “Oliy ta’lim muassasalari” kunlarini, shuningdek, Ziyoli mahallasi”, “Dotsent mahallasi”, “Fan doktori mahallasi”, “Professor mahallasi” kabi turkum ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etib borish shular jumlasidandir.

Xulosa sifatida aytganda, bugungi kunda mahallalardagi yoshlar yetakchilari faoliyati yoshlarni jamiyatning faol va tashabbuskor shaxslari sifatida shakllantirish va bevosita mahallani ular hayotidagi haqiqiy ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni va rolini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar yetakchilari faoliyatini takomillashtirishning zamonaviy usul va vositalari esa ijtimoiy fanlar uchun dolzarb tadqiqot mavzularini ifoda etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шавкат Мирзиёев: “Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор қўйилмоқда”. Президент Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Мустақиллигининг йигирма тўқиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нуткида Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи

<sup>5</sup> X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi(darslik). – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2008, - B. 201.

Ренессанс даврига пойдевор яратилаётгани ҳақида гапирди. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)  
31.08.2020 (29.11.2021 йил)

2. Ёт фояларга қарши курашишда миллий истиқлол фоясининг аҳамияти /Мутаассибликни келтириб чиқувчи ижтимоий омиллар ҳамда маҳалла, таълим муассасаси ва оила ҳамкорлиги таҳлили масалалари республика илмий-амалий конференция. – Тошкент: 2016. – Б. 141-146.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. “Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ–92. 19.01.2022 y.

4. Jamoa. Oila pedagogikasi. – Toshkent: «Aloqachi», 2007, - B.384.

5. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2008, - B. 201.